

Webometrics dunyo oliy ta'lim muassasalarining rasmiy saytlari reytingini aniqlovchi tashkilotdir.

Ushbu reytingning to'rtta asosiy mezon mavjud.

**Presence (20%).** Universitetning asosiy domenida joylashtirilgan veb-sahifalarning umumiy soni va sayt foydalanuvchilarining sonini hisobga oladi. Bugungi kunda universitet rasmiy sayti domenida 15.400 ta veb-sahifaga mavjud, foydalanuvchilar esa bir yilda 1000 dan ortiq qo'rsatkichga ega.

**Openness (15%).** Universitet domeniga joylashtirilgan ilmiy ishlanmalarning ochiqligi (Open Access). Bugungi kunda universitet domeniga 758 ta pdf shaklidagi ilmiy ishlanmalar joylashtirilgan.

**Scholar (15%).** Ushbu mezon universitet domeniga ulangan nufuzli ma'lumotlar bazalarida (GoogleScholar, Scopus, WoS, RINS va b.) OTM professor-o'qituvchisi yoki tadqiqotchisi tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlanmalarga berilgan iqtiboslikni hisoblaydi. Bugungi kunda ushbu ko'rsatkichni ko'tarish uchun tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Sitation (50%).** Ushbu mezon reytingning teng yarim foizini tashkil qiladi va bu universitet rasmiy saytidagi ma'lumotlarga tashqi havolalarning sonini hisoblaydi. Universitet saytida bugungi kunda tashqi havolalar soni 900 tani tashkil etadi.